



UZBEKISTAN AND THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION, THE ORGANIZATION'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF THE CENTRAL ASIAN REGION

Bakhrom Yusufjonov

student

Uzbek State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: yusufjonovbahrom2005@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: "Shanghai spirit", regional security, pragmatic foreign policy, free economic zone, anti-terror operations, economic integration

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: This article discusses the role of Uzbekistan's activities within the Shanghai Cooperation Organization in our foreign policy, its importance in the implementation of future plans, and the impact of cooperation in the organization on ensuring security, fighting terrorism, and developing economic systems in the Central Asian region. In addition, the article also talks about the history of the Shanghai Cooperation Organization, its role in the world today, plans to be implemented, and Uzbekistan's activities in the organization.

O'ZBEKİSTON VA SHANXAY HAMKORLIK TASHKİLOTI, TASHKİLOTNING MARKAZİY OSİYO MİNTAQASI RIVOJLANISHIDAGI HİSSASI

Bahrom Yusufjonov

talaba

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: yusufjonovbahrom2005@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "Shanxay ruhi", mintaqaviy xavfsizlik, pragmatik tashqi siyosat, erkin iqtisodiy zona, aksilterror amaliyotlari, iqtisodiy integratsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi faoliyatining tashqi siyosatimizdagi o'rni, uning istiqbolli rejalarini amalga oshirishdagi ahamiyati va tashkilotdagi o'zaro hamkorlik faoliyatining Markaziy Osyo mintaqasidagi xavfsizlikni ta'minlash, terrorizmga qarshi kurashish va iqtisodiy tizimlarni rivojlantirishdagi ta'siri

haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari maqolada Shanxay Hamkorlik Tashkilotining tarixi, bugungi kundagi jahonda tutgan o'rni, amalga oshirilishi kutilayotgan rejalar hamda O'zbekistonning tashkilotdagi faoliyati haqida ham so'z yuritiladi.

УЗБЕКИСТАН И ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА, ВКЛАД ОРГАНИЗАЦИИ В РАЗВИТИЕ ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКОГО РЕГИОНА

Бахром Юсуфджонов

студент

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: yusufjonovbahrom2005@gmail.com /

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Шанхайский дух», региональная безопасность, прагматичная внешняя политика, свободная экономическая зона, антитеррористические операции, экономическая интеграция

Аннотация: В статье рассматривается роль деятельности Узбекистана в рамках Шанхайской организации сотрудничества в нашей внешней политике, ее значение в реализации будущих планов, а также влияние сотрудничества в организации на обеспечение безопасности, борьбу с терроризмом и развитие экономических систем в регионе Центральной Азии. Кроме того, в статье также говорится об истории Шанхайской организации сотрудничества, ее роли в современном мире, планах к реализации и деятельности Узбекистана в организации.

KIRISH

So'ngi yillarda O'zbekistonning olib borayotgan ochiq, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosati tufayli mamlakat ko'ptomonlama diplomatiyasida xalqaro hamjamiyatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarning o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Ular bilan ko'ptomonlama o'zaro manfaatli sherikchilikni amalga oshirish tashqi siyosatimizdagi asosiy maqsadlarni amalga oshirishga va mintaqqa rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tashabbuslarni xalqaro ko'lamda ilgari shurishga hamda mamlakatimizning xalqaro maydondagi imijini va nufuzini ortishiga xizmat qilmoqda. Ana shunday O'zbekiston tashqi siyosatida muhim o'rinni egallagan tashkilot bu submintaqaviy Shanxay Hamkorlik Tashkilotidir. Hozirgi paytda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar, sherikchilik dasturlari va rejalar mintaqadagi xavfsizlik muhitini, strategik barqarorlikni va geosiyosiy muvozanatni ushlab turishga, jadal iqtisodiy o'sish hamda erkin savdo muhitini ta'minlashga o'zining ijobiy tasirini ko'rsatib kelmoqda. Shuning uchun nafaqat O'zbekiston, balki mintaqamizdagi boshqa davlatlar ham

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining barqaror faoliyatini amalga oshirishi va istiqbolli kelajagidan manfaatdordir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Shanxay Hamkorlik Tashkilotining (ShHT) geosiyosiy va strategik ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning doirasida zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning maqsadi ShHTning rivojlanish bosqichlari, uning xalqaro maydondagi roli va O‘zbekistonning ushbu tashkilotdagi ishtirokini har tomonlama tahlil qilishdan iborat.

Mazkur tadqiqot sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) tadqiqot usullarini o‘z ichiga olgan holda, kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni tashkilotning normativ-huquqiy bazasi, siyosiy tamoyillari va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganishga asoslangan. Tadqiqot davomida ShHTning tarixiy rivojlanishi va hozirgi global jarayonlardagi o‘rni tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida ShHT va unga a’zo davlatlarning mintaqaviy hamkorlikdagi ishtiroki, shuningdek, O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida tashkilotning o‘rni tanlandi. Axborot manbalari sifatida rasmiy hujjatlar (ShHT Xartiyasi, sammit qarorlari), hukumat va tadqiqot markazlarining tahliliy hisobotlari, akademik maqolalar, statistik ma’lumotlar va xalqaro tashkilotlarning nashrlari asos qilib olindi.

Tadqiqot quyidagi strategik metodlardan foydalangan holda olib borildi:

- Hujjatlar tahlili – ShHTning huquqiy-me’yoriy asoslari, qarorlar va xalqaro shartnomalar o‘rganildi.

- Tarixiy metod – tashkilotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi.

- Geosiyosiy tahlil – ShHTning xalqaro maydondagi strategik pozitsiyasi baholandi.

- Qiyosiy (komparativ) tahlil – ShHTning boshqa mintaqaviy tashkilotlar bilan o‘zaro farqlari va o‘xhash jihatlari tahlil qilindi.

- Statistik metod – iqtisodiy hamkorlik va xavfsizlik sohasidagi miqdoriy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy farazlar ilgari surildi:

1. ShHT geosiyosiy manfaatlari to‘qnashuvi nuqtalaridan biri bo‘lib, uning roli faqat xavfsizlik masalalari bilan cheklanmaydi, balki iqtisodiy hamkorlikni ham o‘z ichiga oladi.

2. O‘zbekistonning ShHTdagi ishtiroki mamlakatning geosiyosiy mavqeyini mustahkamlash va mintaqaviy barqarorlikni ta’minalashga xizmat qiladi.

3. ShHTning keljakdagi istiqboli tashkilotga a’zo davlatlarning o‘zaro hamkorlik darajasi va yangi xalqaro muammolarni qanday hal qilishiga bog‘liqdir.

Tadqiqot davomida akademik betaraflik va manbalar ishonchlilikiga qat’iy rioya qilindi. Olingan ma’lumotlarning aniqligi ta’minaldi hamda tahlillarning obyektivligi saqlab qolindi.

NATIJALAR

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) — mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat — Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston O‘zbekiston davlat rahbarlari uchrashuvida tuzilgan (15-iyun 2001-yil). SHHTning vujudga kelish tarixi “Shanxay” beshligideb atalgan uyushma faoliyati bilan bog‘liqdir. Tashkilotning Sankt-Peterburgda bo‘lgan 2-sammitida (2002-yil iyun) ustav hujjati — SHHT Xartiyasiga imzo chekildi. O‘zbekistonning 2000-yillar boshlarida bu tashkilotga kirishi o‘sha davr uchun adekvat qarorlardan biri bo‘lgan. Chunki o‘sha davrdagi Afg‘onistonda va Tojikistondagi notinch vaziyat, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan turli terroristik guruhlarning qo‘poruvchilik faoliyati hududining kengayishi tashkilotga kirishga assosiy sabab bo‘ldi. Dastlab o‘zaro chegaraviy xavfsizlik, mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni taminlash va aksilterror amaliyotlarini birgalikda amalga oshirishni ko‘zlagan tashkilotning faoliyat ko‘lami ham kengayib bordi hamda iqtisodiy ahamiyat kasb eta bordi. Bugungi kunda tashkilot strukturaviy jihatdan Hukumat boshliqlari kengashi va Tashqi ishlar vazirlari kengashi kabi bir qancha bo‘g‘inlardan iborat. Shubhasiz, bugungi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Yevroosiyo qit’asining eng katta ko‘p tomonlama institutiga aylangan. Chunki hozirda tashkilotning 10 nafar a’zo davlati va 14 ta muloqot bo‘yicha sherik davlat tashkilot faoliyatida ishtirok etmoqda. Albatta, bu tashkilotning qamrov jihatidan katta ekanligini hamda tashkilot faoliyatining ko‘pgina davlatlar tashqi siyosiy maqsadlari bilan muvofiq ekanligini ko‘rsatadi. SHHT boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham katta tuzilma ekanligini isbotlab kelmoqda. Misol uchun Bugungi kunda ShHT hududi yer sharining 35 million kvadrat kilometrdan ortiq bo‘lgan hududiga ega bo‘lib, mazkur hudud Yevroosiyo materigining 65 foizini tashkil etadi. ShHT aholisining soni 3,5 milliard kishidan ortiq bo‘lib, a’zo davlatlar iqtisodiyotining hozirgi bosqichida 4-9 foiz oralig‘ida o‘sish sur’atlari ta’milanayotgan bo‘lib, global yalpi ichki mahsulotda 30 foiz ulushga ega. Ishtirokchi mamlakatlarning tashqi savdo hajmi 8 trillion AQSh dollaridan ortiq bo‘lib, bu ko‘rsatkich butun dunyo savdo hajmining qariyb to‘rtadan bir qismiga teng. Bu ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatib turibdiki institut doirasidagi hamkorlik platformasi juda katta iqtisodiy potensialga egadir. Yana tashkilot faoliyatiga qaytadigan bo‘lsak, tashkilot “Shanxay ruhi” negizida tashkil qilingan bo‘lib, ushbu tamoyil o‘zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuv, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, umumiy taraqqiyotga intilish kabi assosiy qoidalarni o‘zida muajassam etadi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi faoliyatimiz mamlakat geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda kalit vazifasini o‘ynaydi. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil yanvar oyida O‘zbekiston parlamentiga Murojaatnomasida quyidagicha ta’kidlab o‘tildi: “Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan munosabatlarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi”. Shuning o‘zi ham yuqoridagi fikrlarimizning to‘g‘riligini ko‘rsatib

o‘tadi. O‘zbekiston SHHT doirasida juda faol ishtirok etyapti, shu bilan bilan birga o‘z taklif va tashabbuslarini ham berib o‘tyapti. So‘ngi besh-olti yil ichida O‘zbekiston tomoni 40 dan ortiq tashabbuslarni ilgari surdi va bu juda ham jiddiy ko‘rsatkich. “O‘tgan davrda ShHT xalqaro siyosatning muhim subyektiga aylandi, nufuzli xalqaro tuzilmalar qatorida munosib o‘rin egalladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ham tashkilot doirasidagi faoliyatimizning nechog‘lik muhim ekanligi bir necha bor ta’kidlab o‘tilyapti.“Shanxay ruhi” tamoyillari asosida mintaqaviy sheriklik mustahkamlanib bormoqda. Yangi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi umumiyl salohiyat ortib bormoqda, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorligimiz kengaymoqda”, – dedi Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2021-yil 17-sentabrdan Dushanbe shahrida SHHT sammitida so‘zlagan nutqida. Sammitida Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishini va yangi xavf-xatarlarga qarshi kurashda tashkilotning salohiyatini oshirish kerakligini ta’kidlab quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Bugun barchamiz jahonda va mintaqada keskinlik ortib borayotganining guvohi bo‘lib turibmiz. Pandemianing salbiy oqibatlari saqlanib qolmoqda. Bularning barchasi bizdan tashkilotimiz doirasida yanada jipslashishimizni va bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashimizni talab qilmoqda”. Markaziy Osiyoning yetakchi davlatlaridan va tashkilotning eng faol ishtirokchilaridan biri sifatida uning istiqbolli rivojlanish trayektoriyasini belgilab beruvchi tashabbuslarga doimo jiddiy munosabatda bo‘lishimiz kerak. Negaki Shanxay Hamkorlik Tashkiloti global iqtisodiy va siyosiy tizimning ajralmas qismiga aylanib bo‘ldi, shuning uchun uning mintaqadagi va xalqaro maydondagi ta’sir kuchidan mintaqaviy va milliy xavfsizlikni taminlash, ishtirokchi davlatlar bilan iqtisodiy, savdo, transport hamda investitsiya aylanmasini oshirish maqsadlarida foydalanishimiz kerak. Hozirgi kunda O‘zbekistonning savdo aylanmasida tashqi savdo aylanmasida ishtirokchi davlatlarning ulishi ancha yuqori foizlarni egallab kelmoqda. Buni quyidagi infografika ham tasdiqlaydi:



O‘zbekistonning ShHTga a’zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi.

Ushbu infografikadan asosida ayta olamizki SHHT davlatlari bilan amalga oshiriladigan savdo-sotiq amaliyotlari O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining katta qismini egallyadi. Rossiya, Xitoy va Qozog‘iston kabi ishtirokchi davlat bilan amalga oshiradigan iqtisodiy hamkorligimiz esa yildan-yilga oshib bormoqda va bu o‘z navbatida tashkilot doirasida yangidan-yangi loyihalarni amalga oshirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa Markaziy Osiyoning iqtisodiy jihatidan rivojlanishida SHHT ning kelajakda amlaga oshiradigan rejalar juda katta o‘rin egallashi mumkin. Bu o‘z navabatida ishtirokchi davlatlar o‘rtasida erkin savdo-iqtisodiy zonasini yaratish uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratadi.

MUHOKAMA

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida erkin savdo-iqtisodiy zonasini g‘oyasining tegishli tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasida savdo xarajatlarini kamaytirish;
- mintaqaviy jarayonlarga doir investitsiyalarni rag‘batlantirish;
- submintaqaviy darajada mehnat taqsimotini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish orqali hududiy sanoat tuzilmasi resurslarini birlashtirish;
- Yevroosiyo sanoat tizimini global sanoat tizimiga integrasiyasini ta’minalash va boshqalar.

Bunday rejalar qatoriga biz yagona transport tizimini barpo qilishni ko‘zlovchi integratsiyalashgan temir yo‘l dasturlarini kiritishimiz mumkin. Shu munosabat bilan “O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy” temir yo‘li kelajakda “Sharq-G‘arb” loyihasi doirasida mintaqaviy transport tarmog‘ining muhim bo‘g‘iniga aylanishi ko‘zda tutilgan. “Shimol-Janub” loyihasi Markaziy Osiyoning barcha geografik jihatdan yopiq mamlakatlariga Yevropa, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va O‘rtayer dengizi portlariga chiqish imkonini beradi. Mutaxassislarning fikricha, yiliga kamida 5 million tonna yuk tashish uni qurish xarajatlarini to‘liq qoplashi mumkin. Bu rejaning amalga oshirilishi tashkilot ishtirokchilari o‘rtasidagi savdo, eksport-import va xomashyo aylanmasini bir necha karra ko‘paytirishga hissa qo‘sadi va bu iqtisodiy ekrin savdo muhitini yaratishni, investitsiyalar oqimini ko‘paytirishni qo‘llab quvvatlaydi. Tashkilotning ma’daniy-gumanitar, ilm-fan, turizm va ta’lim sohasidagi ulkan potensialidan to‘liq foydalanish kundalik muhikamalarning dolzarb masalasiga aylanmoqda. 3.5 mlrd aholi istiqomat qiladigan tashkilotning potensialini yumshoq kuch orqali ko‘rsatmaslikning ham iloji yo‘q. A’zo davlatlar o‘rtasida ta’lim sohasida talabalar almashinuvini keng yoyish, xalq diplomatiyasini kuchaytirish, madaniyatlar o‘rtasida bag‘rikenglikni targ‘ib qilish, tashkilot turli xil tarixiy-madaniy sharoitlar, dinlar va svilizatsiyalar asosida shakllanayotgan davrda juda muhimdir. SHHT ning Markaziy osiyo mintaqasidagi mavjudligi va faoliyati hozirgi siyosiy va global jarayonlar fonida o‘zining o‘rnini yo‘qotmayapti balki yildan yilga mintaqqa rivojiga o‘zining ulkan iqtisodiy va siyosiy ta’sirini ko‘rsatib kelmoqdadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston o‘zining pragmatik va ko‘p vektorli tashqi siyosatidan kelib chiqib, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilab beruvchi tamoyillarning daxlsizligini ta’minlash, uning huquqiy va institutsional asoslарining qonuniyligini oshirish uchun tashabbuslarni ilgari surmoqda. O‘zbekiston tashkilotni suveren davlatlarning yagona irodasi asosida faoliyat yuritishini va unda davatlardan ustun turuvchi kengash va idoralarning tuzilmasligini istaydi. Markaziy Osiyoning rivojlanish o‘qida SHHT mintaqaviy xavfsizlikdagi hamkorlik, qo‘poruvchi kuchlarga qarshi kollektiv kurashish, savdo-sotiқ, iqtisodiyot va investitsiyalar sohasida yagona platforma vazifasini bajarishi bilan o‘larоq muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Shuning uchun ham SHHT doirasidagi faol ishtirokimizni davom ettirishimiz, ishtirokchi davlatlar bilan munosabatlarimizni rivojlantirishimiz geosiyosiy faoliyatimizni kengaytirishimizga va tashqi siyosatda to‘g‘ri vektorni tanlashimizga yordam beradi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xakimova Gulrux Abdunabiyevna. “Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) – mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti”. “Journal of New Century Innovations”, Volume–13, Issue-1, September, 2022. – B.99.
2. Feruza Nazarova, E’tibor Sultonova. “O‘zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi mintaqaviy vositachilik roli va ahamiyati”. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”, 4 (3), March., 2024. – B.57-58.
3. Tursunov Bekmuxammad Omonovich. “Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi”. “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil”, noyabr, 2024. – B.321.
4. Raxmatulla Nurimbetov. “Shanxay Hamkorlik Tashkiloti istiqbollari: O‘zbekiston yondashuvlari”. “Siyosatshunoslik, Huquq va Xalqaro munosabatlar” jurnali, 2024. – B.61.
5. Абдулазиза Камилова. Учиться работать в новых условиях. Интервью министра иностранных дел Республики Узбекистан. «Янги Узбекистон» и «Правда Востока». №221. 2020. – С.3.
6. А.Лукин, А.Мочульский. Шанхайская организация сотрудничества: структурное оформление и перспективы развития, Аналит. записки. 2005, Вып. 2 (4) – С.85-87.
7. Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 17-sentabrda Dushanbe shahridagi SHHT sammitida so‘zlagan nutqidan. Url: <https://daryo.uz/2021/09/17/>.
8. Shanxay Hamkorlik tashkiloti. Url: <https://uz.wikipedia.org/wiki/>.
9. O‘zbekistonning ShHTga a’zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi. Review.uz. Url: <https://review.uz/uz/post/infografika>
10. Внешняя торговля стран-участниц ШОС превышает \$8 трлн. Url: <https://kapital.kz/economic/127396/>.